

# Jizzax viloyatida kichik tadbirkorlik

(dastlabki ma'lumotlar)

2019 - yil yanvar - iyun


## E'tibor bering!

- 2019 yilning yanvar-iyun oylarida kichik tadbirkorlikning YaHMDagi ulushi **78,6 %**ni tashkil etdi;
- **2326 ta** yangi kichik korxonalar va mikrofirmalar tashkil qilindi;
- 2019 yilning yanvar-iyun oylarida kichik tadbirkorlikning soni (har 1000 aholiga, birlikda) **15,2 birlikni** tashkil qildi.


2019 yilning yanvar-iyun oylarida 2326 ta yangi kichik va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo'jaliklarsiz) tashkil qilindi, bu o'tgan yilning mos davriga nisbatan 1,8 marta ko'p demakdir.

Eng ko'p kichik korxonalar va mikrofirmalar savdo tarmog'ida (32,8 %), sanoat tarmog'ida (22,8 %), qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida (16,6 %), qurilish tarmog'ida (12,6 %), yashash va ovqatlanishda (4,4 %) va tashish va saqlashda (2,5 %) tashkil etilgan.


2019 - yil yanvar - iyun oylarida yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi.



Savdo




Sanoat



Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi



Qurilish



Yashash va ovqatlanish xizmatlari



Tashish va saqlash

## 2019 yilning yanvar-iyunida kichik tadbirkorlikning aso-siy ko'rsatkichlari

	o'lchov birligi	2018 y.	2019 y.	(+-)
<b>Faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni</b>	<b>birlik</b>	<b>10462</b>	<b>13291</b>	<b>2829</b>
<b>Yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar</b>	<b>birlik</b>	<b>1265</b>	<b>2326</b>	<b>1061</b>
YaHM	%	82,2	78,6	-3,6
Sanoat	%	65,4	59,7	-5,7
Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	%	98,7	99,7	1,0
Investitsiya	%	58,0	56,0	-2,0
Qurilish	%	98,6	96,9	-1,7
Savdo	%	94,5	91,6	-2,9
Xizmatlar	%	70,2	62,8	-7,4
Yuk tashish	%	95,4	94,8	-0,6
Yuk aylanmasi	%	98,6	98,3	-0,3
Yo'lovchi tashish	%	96,0	96,1	0,1
Yo'lovchi aylanmasi	%	98,0	98,1	0,1
Eksport	%	93,8	66,1	-27,7
Import	%	94,2	97,6	3,4


## Hududlar bo'yicha yangi tashkil topgan kichik korxonalar va mikrofirmalar

(birlikda)

	yanvar-iyun 2018 y.	yanvar-iyun 2019 y.
<b>Jizzax viloyati</b>	<b>1265</b>	<b>2326</b>
Jizzax sh.	292	686
<i>tumanlar:</i>		
Arnasoy	48	89
Baxmal	115	105
G'allaorol	103	184
Sharof Rashidov	217	408
Do'stlik	53	91
Zomin	82	210
Zarbdor	74	96
Zafarobod	41	50
Mirzacho'l	32	89
Paxtakor	61	102
Forish	126	163
Yangiobod	21	53


2019 yilning yanvar-iyun oylarida yangi tashkil topgan kichik korxonalar va mikrofirmalar hududlar bo'yicha eng ko'p Jizzax shahrida - 686 ta, Sharof Rashidov tumanida - 408 ta, Zomin tumanida - 210 ta. G'allaorol tumanida - 184 ta, Forish tumanida - 163 ta, Baxmal tumanida - 105 ta, Paxtakor - 102 ta, Mirzacho'l, Zarbdor, Do'stlik va Arnasoy tumanlarida bu ko'rsatkich o'rta darajada bo'lib, 80-100 tani tashkil etgan. Eng past ko'rsatkichni Yangiobod tumani - 53 ta va Zafarobod tumani - 50 tani tashkil etgan.

**2019 yil yanvar-iyun holatiga yangi tashkil topgan  
kichik korxonalar va mikrofirmalarning hududlar  
bo'yicha ulushi**



2019 yil yanvar-iyun holatiga hududlar bo'yicha yangi tashkil topgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning jami miqdoridan eng ko'p ulush Jizzax.sh ga - 29,5 %, Sharof Rashidov tumani- 17,5 %, Zomin tumani 9,0 %, G'allaorol tumani - 7,9 %, Forish tumani - 7,0 %, Baxmal tumani - 4,5 %, Paxtakor tumani - 4,4 %, Zarbdor tumani - 4,1 %, Do'stlik tumani - 3,9 %, Mirzacho'l tumani - 3,8 %, Arnasoy tumani - 3,8 %, Yangiobod tumani - 2,3 %, eng past ko'rsatkich Zafarobod tumanida - 2,1 % ni tashkil etdi.

**2019 yil yanvar-iyun holatiga yangi tashkil topgan  
kichik korxonalar va mikrofirmalarning hududlar  
bo'yicha ulushi**



**Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yangi tashkil topgan  
kichik korxonalar va mikrofirmalar**

*(birlikda)*

	<b>yanvar-iyun 2018 y.</b>	<b>yanvar-iyun 2019 y.</b>
<b>Jami</b>	<b>1265</b>	<b>2326</b>
Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi	378	385
Sanoat	266	531
Qurilish	147	292
Savdo	229	763
Tashish va saqlash	34	58
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	84	103
Axborot va aloqa	11	34
Sog'likni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	14	20
Boshqa turdagi xizmatlar	102	140

2019 yil yanvar-iyunida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yangi tashkil topgan kichik korxonalar va mikrofirmalar eng ko'p savdo tarmog'ida **763 ta**, shuningdek:


**Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida** – 385 ta;

**Sanoatda** - 531 ta.;

**Qurilishda** - 292 ta.;

**Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar** - 103 ta.;


## Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yangi tashkil topgan kichik korxonalar va mikrofirmalar to'g'risida ma'lumot



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha eng ko'p yangi tashkil topgan kichik korxonalar va mikrofirmalar Savdoda—763 ta, Sanoatda— 531 ta, Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida - 385 ta, Qurilishda - 292 ta, Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda - 103 ta, Tashish va saqlashda - 58 ta, Axborot va aloqada - 34 ta, Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishda - 20 ta va boshqa turdagi xizmatlarda - 140 tani tashkil etdi.

2019 yilning yanvar-iyunida kichik tadbirkorlik sub'ektlarining soni (har 1000 aholiga, birlikda) hududlar bo'yicha eng ko'p ko'rsatkich Jizzax shaxrida 24,6 birlikda, Mirzacho'l tumanida 18,4 birlikda, Arnasoy tumanida 17,4 birlikda, Yangiobod tumanida 16,2 birlikda, Forish tumanlarida 15,2 birlikda, Do'stlik tumanida 15,2 birlikda, Zarbdor tumanida 14,8 birlikda va Sharof Rashidov tumanida 14,7 birlikda bo'lib o'rtacha ko'rsatkich 12,3-14,0 birlik oralig'ida Zafarobod, G'allaorol, Baxmal va Paxtakor tumanlarida aniqlandi. Zomin tumanida 11,9 birlikda ushbu ko'rsatkich past bo'lib qolmoqda.


**2019 yilning yanvar-iyunida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik sub'ektlarining soni (har 1000 aholiga, birlikda).**



Agar, 2018 yilning yanvar-iyunida kichik tadbirkorlik sub'yektlarining soni (har 1000 aholiga, birlikda) 16,4 birlikni tashkil etgan bo'lsa, 2019 yilda bu ko'rsatkich 15,2 birlikni tashkil etdi va 2018 yilga nisbatan 1,2 birlikka kamaydi.




## Kichik tadbirkorlik sub'yektlarining soni (har 1000 aholiga, birlikda), yanvar-iyun holatiga.




Quyida, 2019 yilning yanvar-iyunida iqtisodiyot tarmoqlarida kichik tadbirkorlik (biznes)ning sanoatdagi ulushi 59,7 %, qurilishda - 96,9 %, investitsiyada - 56,0 %, savdoda - 91,6 %, eksportda - 66,1 %, importda - 97,6 % va xizmatlar sohasidagi - 62,8 % ulushi aniq ko'rsatilgan.

## 2019 yilning yanvar-iyunida iqtisodiy faoliyat turlarida kichik tadbirkorlikning ulushi




2019 yilning yanvar-iyunida kichik tadbirkorlikning YaHMdagi ulushi 78,6 % tashkil qildi (2018 yilning yanvar-iyunida 82,2 %). YaHM tarkibida pasayishi yirik korxonalar ulushi o'shishi bilan tushuntiriladi.

### Kichik tadbirkorlikning YaHMdagi ulushining pasayishi dinamikasi (yanvar-iyun holatiga, %da)



### Kichik tadbirkorlikning ulushi (umumiy hajmiga nisbatan % da)



**2019 yil yanvar-iyunida kichik tadbirkorlikning  
hududlar kesimida iqtisodiy faoliyat turlari bo`yicha ulushi, (%da)**

	<b>Sanoat</b>	<b>Qurilish</b>	<b>Xizmatlar</b>	<b>Investitsiya</b>
<b>Jizzax viloyati</b>	<b>59,7</b>	<b>96,9</b>	<b>62,8</b>	<b>56,0</b>
Jizzax sh.	64,3	96,4	35,9	52,3
tumanlar:				
Arnasoy	43,2	100,0	98,9	18,7
Baxmal	100,0	100,0	92,4	83,6
G'allaorol	100,0	100,0	98,5	83,4
SHarof Rashidov	100,0	100,0	98,1	79,1
Do'stlik	13,9	100,0	98,2	64,7
Zomin	94,3	82,0	87,4	50,5
Zarbdor	33,5	100,0	98,1	76,0
Zafarobod	36,4	100,0	96,4	6,0
Mirzacho'l	100,0	75,8	98,2	87,4
Paxtakor	27,0	100,0	96,3	83,7
Forish	95,9	100,0	93,2	89,3
Yangiobod	100,0	100,0	96,7	70,6

**Sanoat soxasida** hududlar bo`yicha yuqori ulushini SHarof Rashidov (100,0 %), Baxmal (100,0 %), G'allaorol (100,0 %), Mirzacho'l (100,0) va Yangiobod (100,0 %) tumanlari tashkil etadi.

**Qurilishda** - Jizzax shaxri (96,4 %), Zomin tumani (82,0 %), Mirzacho'l tumani (75,8 %) va qolgan tumanlarning ulushi 100% ni tashkil etadi.

**Xizmatlar sohasida** yuqori ulushni Arnasoy (98,9 %), G'allaorol (98,5 %), Do'stlik (98,2 %) va Mirzacho'l (98,2 %) tumanlari tashkil etadi.

**Investitsiyada** yuqori ulushni Forish (89,3 %), Mirzacho'l (87,4 %), Paxtakor (83,7 %), Baxmal (83,6 %) va G'allaorol (83,4 %) tumanlari tashkil etadi.

# Kichik tadbirkorlik sub'ektlari tomonidan

## 2019 yilning yanvar-iyunida



Sanoat mahsuloti ishlab chiqarish hajmi 1319,4 mlrd. so'mni (jami sanoat ishlab chiqarishining 59,7 foizi) yoki 2018 yilning yanvar-iyuniga nisbatan 96,5 foizni tashkil qildi;

1783,6 mlrd. so'mlik investitsiyalar (umumiy investitsiyalar hajmining 56,0 foizi) o'zlashtirildi va 2018 yilning yanvar-iyuniga nisbatan o'sish 187,7 foizni tashkil qildi;



1101,4 mlrd. so'mlik qurilish ishlari (qurilish ishlari umumiy hajmining 96,9 foizi) bajarildi va 2018 yilning yanvar-iyuniga nisbatan o'sish sur'ati 121,3 foizni tashkil qildi;

1161,4 mlrd. so'mlik xizmatlar ko'rsatilib (viloyat jami xizmatlar xajmining 62,8 foizi), 2018 yilning yanvar-iyuniga nisbatan o'sish sur'ati 105,9 foizni tashkil qildi.




chakana tovar aylanmasi umumiy hajmining 91,6 foizi yoki 2542,8 mlrd. so'mi (o'sish sur'ati 104,1 foizni tashkil qildi) shakllantirildi;

42,2 mln. AQSh dollari (umumiy eksport hajmining 66,1 foizi) miqdorida mahsulotlar (tovar va xizmatlar) eksport qilindi. 200,6 mln. AQSh dollari (umumiy import hajmining 97,6 foizi) miqdorida mahsulotlar (tovar va xizmatlar) import qilindi;




avtomobil transporti yuk aylanmasining 120,6 foizga (viloyat jami avtomobil transporti yuk aylanmasining 98,3 foizi), yo'lovchi aylanmasining esa 103,2 foizga (umumiy yo'lovchi aylanmasining 98,1 foizi) o'sishi ta'minlandi;

## Kichik tadbirkorlikdagi eksport (tovar,xizmat)larning, jami eksport hajmidagi ulushi, %




2019 yil yanvar-iyun holatiga hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlikdagi eksport (tovar,xizmat)larning jami eksportdagi eng ko'p ulushi Yangiobod, Forish, Mirzacho'l, Zomin, G'allaorol, Baxmal va Sharof Rashidov (100,0 %) tumanlari eng past ko'rsatkichni Do'stlik (21,6 %) va Paxtakor (23,0 %) tumanlari tashkil etdi.

## 2019 yil yanvar-iyun oylarida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik (biznes)da sanoat mahsuloti ishlab chiqarish hajmi




Hududlar bo'yicha eng ko'proq sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi Jizzax shahri (747,3 mlrd.so'm), Sharof Rashidov (106,2 mlrd.so'm), Zomin (100,9 mlrd.so'm) va Forish (76,6 mlrd.so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi. Yangiobod (22,1 mlrd.so'm) va Zafarobod tumanlarida (21,4 mlrd.so'm) sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi past bo'lib qolmoqda.






## 2019 yil yanvar-iyunida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik (biznes)da chakana tovar aylanmasi hajmi va o'sish sur'ati



Hududlar bo'yicha ko'proq chakana tovar aylanmasi hajmi Jizzax shahri (590,5 mlrd.so'm), Zomin (458,0 mlrd.so'm), Sharof Rashidov (385,6 mlrd.so'm), va G'allaorol (216,6 mlrd.so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi.



## 2019 yil yanvar-iytunida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik (biznes)da bajarilgan qurilish ishlari hajmi va o'sish sur'ati




Hududlar bo'yicha eng ko'p bajarilgan qurilish ishlari hajmi Jizzax shahri (479,2 mlrd.so'm), SHarof Rashidov (165,2 mlrd.so'm), G'allaorol (80,9 mlrd.so'm) va Paxtakor (75,5 mlrd.so'm) tumanlarida qayd etildi.






## 2019 yil yanvar-iyunida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik (biznes)da asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar hajmi va o'sish sur'ati



Hududlar bo'yicha eng ko'p asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar hajmi Jizzax shahri (529,8 mlrd.so'm), SHarof Rashidov (184,3 mlrd.so'm), Mirzacho'l (179,4 mlrd.so'm) va Zomin (142,4 mlrd.so'm) tumanlarida qayd etildi.




## 2019 yil yanvar- iyunida hududlar bo`yicha kichik tadbirkorlik (biznes)da xizmatlar sohasi hajmi va o`sish sur`ati



Hududlar bo`yicha ko'proq xizmatlar hajmi Jizzax shahri (366,1 mlrd.so'm), SHarof Rashidov (159,5 mlrd.so'm), Do'stlik (107,5 mlrd.so'm) G'allaorol (106,1 mlrd.so'm), va Zomin (85,5 mlrd.so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi.




## 2019 yil II - chorak bo'yicha kuzatuvda ishtirok etgan yangi tashkil etilgan mikrofirm va kichik korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi



Hududlar kesimida jami kuzatuvda ishtirok etgan yangi tashkil etilgan mikrofirm va kichik korxonalarining ulushi Jizzax shahrida - 28,8 % (34 ta), SHarof Rashidov tumanida - 16,9 % (20 ta), Zomin tumanida - 8,5 % (10 ta), Forish tumanida - 7,6 % (9 ta), G'allaorol tumanida - 6,8 % (8 ta), Mirzacho'l tumanida - 6,8 % (8 ta), Arnasoy tumanida 5,1 % (6 ta), Do'stlik tumanida - 5,1 % (6 ta), Baxmal tumanida - 4,2 % (5 ta), Yangiobod tumanida - 3,4 % (4 ta), Paxtakor tumanida - 2,5 % (3 ta), Zafarobod tumanida - 2,5 % (3 ta) va Zarbdor tumanida - 1,7 % (2 ta) ni tashkil qildi.


**2019 yil II - chorak bo'yicha kuzatuvda ishtirok etgan yangi tashkil etilgan mikrofirma va kichik korxonalarining hududlar bo'yicha taqsimlanishi**



Kuzatuv ma'lumotlari tahlili, qurilish sohasida respondentlarning 13,3 % iqtisodiy vaziyatni – qulay va 80,0 % esa qoniqarli deb hisoblashini, mos ravishda savdo sohasida – 16,2 % va 73,0 %, xizmatlar sohasida – 5,9 % va 88,2 %, qishloq, o`rmon va baliq xo`jaligida – 9,5 % va 76,2 %, sanoatda – 21,4 % va 71,4 %ni tashkil qilganini ko`rsatdi.


Joriy iqtisodiy vaziyatga pessimistik ruhda yondashganlar sanoatda – 7,2 %, qurilishda – 6,7 %, qishloq, o`rmon va baliq xo`jaligida – 14,3 %, xizmatlarda – 5,9 % va savdoda – 10,8 %ni tashkil qildi.

### Iqtisodiy vaziyatni baholash 2019 yil II-chorak uchun, %



**Iqtisodiy vaziyat yaxshilanishi yaqin** uch oyda 92,9 % sanoat korxonalari, 62,2 % – savdo, 64,7 % – xizmatlar, 52,4 % – qishloq, o`rmon va baliq xo`jaligi va 86,7 % – qurilish tarmog`ida kutilmoqda.

## Iqtisodiy vaziyatdagi o'zgarishlar istiqbolini yaqin uch oyda baholanishi, %



Tahlil natijalaridan kelib chiqib, yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarga biznes muhitini yaxshilash uchun ko'rilayotgan chora tadbirlar natijasida respondentlar yaqin istiqbolda umumiy iqtisodiy vaziyatning yaxshilanishini ijobiy baholayotganligini xulosa qilish mumkin.

**Ishbilarmonlik muhiti kuzatuvlari,  
tadbirkorlikni rivojlantirish statistikasi bo'limi**

Nashr uchun mas'ul: F.Baxriddinov

Tel.: (0371) 230-83-43, 230-83-61